

**ShARTNOMA LOYIXASI BO'YICHA YURIDIK XULOSA**  
Oqqo'rg'on tumanidagi buyurtmachi **“Oqqo'rg'on tumani TTB”** va  
**“Toshkent viloyati dori-darmon” AJ** o'rtasida tuzilgan  
shartnoma yuzasidan

18.01.2022 yil

Oqqo'rg'on tumani

Men, Toshkyent viloyati Oqqo'rg'on tumani Yuridik xizmat ko'rsatish markazining bosh yuriskonsulti S.Q.Yuldashev tomonidan **“Oqqo'rg'on tumani TTB”** va **“Toshkent viloyati dori-darmon” AJ** o'rtasida tuziladigan **“dori-darmon yetkazib berish to'g'risida”** tuzilyotgan shartnoma loyihasi yuzasidan, shuningdek shartnomani tuzish va bajarishga aloqasi bo'lgan boshqa hujjatlarni huquqiy ekspertizadan o'tkazdim. Ushbu xulosa **“Xo'jalik yurituvchi subektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida”**gi Qonunining 21-moddasiga muvofiq tuzilgan.

Shartnoma predmeti bo'lib shartnoma loyihasining amaldagi qonun xujjatlar me'yorlariga muvofiqligini o'rganish, uni huquqiy rasmiylashtirishning to'g'riligi va taraflarning ushbu shartnomani tuzishga vakolatligi hisoblanadi.

Shartnomaning umumiy qiymati 5876301 (besh million sakkiz yuz yetmish olti ming uch yuz bir) so'm.

Huquqiy ekspertizadan o'tkazish davrida shartnomada nazarda tutilgan munosabatlarni bevosita va bilvosita tartibga solish mumkin bo'lgan, yuridik xizmatning foydalanishi mumkin bo'lgan O'zbekiston Respublikasining barcha qonun hujjatlari va boshqa normativ hujjatlari (huquqiy ekspertyzadan o'tkazish kuniga ma'lum bo'lgan barcha o'zgarishlar va qo'shimchalar bilan) qayta ko'rib chiqildi, o'tkazilgan huquqiy ekspertiza natijasida quyidagilar aniqlandi.

1. **“Toshkent viloyati dori-darmon” AJ** O'zbekiston Respublikasi qonun xujjatlariga muvofiq tashkil etilgan yuridik shaxs hisoblanadi. Ushbu shartnoma loyihasi O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonun hujjatlari talablari asosida tuzilgan.

2. Tomonlarning shartnoma shartlarini bajarmasligi yuzasidan javobgarlik **“Xo'jalik yurituvchi subektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida”**gi Qonuni talablari asosida tuzilgan.

3. Shartnoma shartlari yuzasidan kelib chiqishi mumkin bo'lgan nizoli holatlarni hal etish masalasi to'g'ri ko'rsatilgan.

4. Ushbu huquqiy xulosa tuzilayotgan vaqtda shartnoma shartlarining bajarilishiga mo'nelik qiladigan holatlar aniqlanmadi va shartnoma amaldagi qonun talablari asosida quyidagilar

5. 30/14-sonli shartnoma qonun talablari asosida tuzilganligini huquqiy ekspertizadan o'tkazishda korrupsiyaga yo'l qo'yilganligi holatlari aniqlanmadi.

6. Shartnoma loyihasi rasmiylashtirish uchun asos bo'ladigan O'zbekiston Respublikasining 22.04.2021 yildagi O'RQ-684 sonli **“Davlat xaridlari to'g'risida”**gi Qonun va **“Raqobat to'g'risida”**gi Qonun talablariga rioya qilingan.

Markaz bosh yuriskonsulti



S.Q.Yuldashev